

QISHLOQ XO'JALIGI MASHINASOZLIGINI RIVOJLANTIRISH

To'xtayev Shoberdi Abdurayem o'g'li

Termiz Agrar texnalogiyalar va inovatsion rivojlantirish institute

Meva-sabzavotchilik va texnalogiyasi fakulteti

Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish ta'lif yo'nalishi 3-kurs talabasi
email: toxtayevshoberdi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish bo'yicha turli xil masalalarni ko'rib chiqqan holda tahlil qilingan. Bundan tashqari, qishloq xo'jaligi nima? Qishloq xo'jaligini yurtimiz iqtisodiyotidagi o'rni, hamda qishloq xo'jaligi mashinasozligini yanada takomillashtirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rib chiqilyapti va qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohasida qanday o'zgarishlar bor shular xususida so'z yuritamiz. [1]

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish

DEVELOPMENT OF AGRICULTURAL MACHINERY

Abstract: This article has been analyzed considering various issues related to the development of agricultural machinery. Also, what is agriculture? We will talk about the role of agriculture in the economy of our country, what measures are being considered for the further improvement of agricultural machinery, and what are the changes in the field of agricultural machinery. [1]

Keywords: agriculture, agricultural mechanization, development of agricultural mechanization

РАЗРАБОТКА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ТЕХНИКИ

Аннотация В данной статье проанализировано рассмотрение различных вопросов, связанных с развитием сельскохозяйственной техники. Кроме того, что такое сельское хозяйство? Мы расскажем о роли сельского хозяйства в экономике нашей страны, какие меры рассматриваются для дальнейшего совершенствования сельскохозяйственной техники и какие изменения происходят в области сельскохозяйственной техники. [1]

Ключевые слова: сельское хозяйство, механизация сельского хозяйства, развитие механизации сельского хозяйства.

KIRISH O'zbekiston iqtisodiyoti uchun an'anaviy ixtisosli sohalar hisoblangan paxta, pilla, kanop yetishtirish va ularni qayta ishlash qo'l mehnatini ko'p talab qiladi. Shu sababli qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan sohalarini mexanizatsiyalashni ta'minlovchi, ya'ni yer haydash, ekin ekish va ishlov berish, hosilni yig'ib olish hamda tayyor xomashyoni qayta ishlashda qo'llanadigan mashina va asboblar ishlab chiqaradigan mashinasozlik tarmoqlari vujudga keldi. Endilikda bu tarmoqlar paxta yetishtiruvchi xorijiy mamlakatlarga ham mashina va mexanizmlar yetkazib bermoqda. Toshkentdagi «Toshqishloqmash», «O'zbekqishloqmash» va Chirchiqdagi «Chirchiqqishloqmash» kabi zavodlar qishloq xo'jaligi mashinasozligining asosiy korxonalaridir. Bu zavodlar paxtachilik uchun traktor seyalkalari, kultivatorlar, g'o'zapoya yuladigan, ko'rak teradigan va chuviydigan, o'g'it aralashtiradigan, qishloq xo'jaligi zararkunandalarini yo'qotishda zaharli moddalarni purkaydigan mashinalar ishlab chiqaradi. 1994-yili O'zbek-Isroiil qo'shma korxonasida paxta teradigan mashinaning yangi modeli yaratildi. Suv omborlari, kanallar qurilishi va ularni loyqadan tozalashda, suvni yuqoriga ko'tarishda, umuman, irrigatsiyada qo'llaniladigan mashinalar ishlab chiqaruvchi irrigatsiya mashinasozligi ham agrosanoat majmuasi ehtiyojiga ko'ra vujudga keldi. Irrigatsiya mashinasozligining markazi Andijon viloyati hisoblanadi. Paxtachilik rivojlangani sayin traktorlarga, paxta tashiydigan mashina va mexanizmlarga ehtiyoj orta bordi. Shuning uchun Toshkent traktor zavodi- TTZ (sobiq «Toshavtomash»)da universal traktorlar, paxtani qop-qanorsiz tashishga mo'ljallangan ag'darma tirkamalar ishlab chiqarila boshlandi. Toshkent, Andijon, Samarqand va Kattaqo'rg'onda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi mashinasozlik zavodlari joylashgan. Milliy iqtisodiyotda, ayniqsa, qishloq xo'jaligida mashina va mexanizmlar ko'plab qo'llanilayotganidan ularga ehtiyyot qismlar yetkazib beradigan hamda sozlaydigan korxonalar deyarli barcha viloyatlarda barpo etilgan. Samarqanddagi «Paxtamash» zavodi ehtiyyot qismlar ishlab chiqaradigan korxonalarning eng yirigidir. Bog'dorchilik, uzumchilik va polizchilikda qo'llaniladigan mashina va moslamalar «O'rta Osiyoqishloqmash» birlashmasida ishlab chiqarilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 14-mart kuni qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish va sohani zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash bo'yicha ishlar natijadorligi, mavjud muammolar va eng dolzarb vazifalar tahliliga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi. Mamlakatimiz

iqtisodiyotining barcha jabhalari qatori qishloq xo'jaligida ham muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l va sifatli hosil olish, tarmoqni ilg'or usullar asosida rivojlantirishda sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mashina-traktor parklarini zamonaviy texnika va agregatlar bilan ta'minlash muhim o'rinn tutadi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-noyabrdagi "O'zagrotexsanoatxolding" aksiyadorlik jamiyatini faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida qishloq xo'jaligi mashinasozligi tizimi tubdan qayta tashkil etildi. Tarmoqning texnikaviy bazasini takomillashtirish maqsadida "O'zagrotexsanoatxolding", qishloq xo'jaligi texnikasini ishlab chiqarish bo'yicha "O'zagrotexmash", lizing asosida yetkazish bo'yicha "O'zagrolizing", servis va mexanizatsiya xizmatlari ko'rsatish uchun "O'zagroservis" jamiyatlari tuzildi. Mashina-traktor parklarining byudjet oldidagi qarzlarini to'lash muddati 2 yilga kechiktirildi. Jizzax, Sirdaryo, Toshkent va Namangan viloyatlarida fermerlar uchun lizing muddati 10 yildan 12 yilga, mashina-traktor parklari uchun 7 yildan 10 yilga uzaytirildi. Fermerlar va mashina-traktor parklariga qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish uchun 5 foizli imtiyozli kreditlar ajratildi. Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 2017-yilda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish va lizing xizmatlari 1,7 barobar, mexanizatsiya xizmatlari 2,5 barobar ortdi. Yig'ilishda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish, servis xizmatini yaxshilash, importni optimallashtirish, eksportni kengaytirish bo'yicha muayyan kamchiliklar mavjudligi, qishloq xo'jaligi texnika bilan 85 foiz ta'minlangani, ma'lum qismi eskirgani, ularni o'z vaqtida yangilash choralari ko'rilmagani qattiq tanqid qilindi. Bugungi kunda tarmoqda 172 mingdan ortiq texnikaga talab bo'lgani holda, 146 mingta texnika mavjud yoki 26 mingta texnika yetishmaydi. Fermer xo'jaliklarining yuqori unumli haydov traktorlari bilan ta'minlanishi 75 foizni, g'alla o'rish kombaynlari – 86 foiz, paxta terish mashinalari – 28 foiz, qo'shqator chigit ekish seyalkalari – 60 foiz, don ekish seyalkalari bilan ta'minlanishi 25 foizni tashkil etadi. Umuman, yetishmaydigan va eskirgan texnikani hisobga olganda, jami 82 mingta yangi qishloq xo'jaligi texnikasiga talab mavjud. Dasturga muvofiq joriy yilda 16 mingta, jumladan, birinchi yarim yillikda 5 ming 800 texnikani kredit asosida yetkazib berish belgilangan. Yig'ilishda qishloq xo'jaligi texnikasiga talabni to'liq ta'minlash maqsadida "O'zagrotexsanoatxolding" aksiyadorlik jamiyatni, Moliya va Qishloq xo'jaligi vazirliklariga ikki oy muddatda 2018-2021-yillarda qishloq xo'jaligi texnikasi ishlab chiqarish va yetkazib berish bo'yicha dastur ishlab chiqish vazifasi topshirildi. Bunda qishloq xo'jaligi texnikasini xaridorlarga yetkazib berishni moliyalashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni ham nazarda tutish zarurligi ta'kidlandi.

XULOSA

zsozligini rivojlantirish uchun yurtboshimiz tomonida turli xil chora-tadbirlar ko'rib chiqilyapti hamda turli kengashlar o'tkazilib qishloq xo'jaligi mashinasozligini rivojlantirish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratilib berilishi ko'zda tutilmogda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://uza.uz/oz/posts/qishloq-xo-jaligi-mashinasozligini-rivojlantirish-yuqori-hos-14-03-2018>
2. <https://yuz.uz/uz/news/mashinasozlikni-rivojlantirish-rejalari-taqdimot-qilindi>
3. <http://library.namdu.uz/40%20КишлоК%20ва%20урмон%20хужал иги/TRAKTORLAR VA QISHLOQ XO'JALIGI MASHINALARIDAN FOYDALANISH , TEXNIK.pdf>
4. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/288/books/XhyJ1vV3eJyt4771WHSWSnBWLzPDpmWTJEviLBAe.pdf>
5. <https://fayllar.org/1-qishloq-xojalik-mashinalarining-tasnifi.html>
6. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/36/books/Y21Njjagx31DHIO2wLecsmkDycehirR31lymJ45j.pdf>
7. <https://uzal.uz/10297/mashinasozlikni-rivojlantirish-rejalari-taqdimot-qilindi/>
8. https://library.samdu.uz/files/01a55f2d9547c2927d57cb5235ffed12_O%60ZBEKISTON%20RESPUBLIKASI%20MASHINASOZLIK%20SANOATINING%20RAQOBATBARDOSHLIGINI%20OSHIRISH%20YO%60NALISHLARI.pdf
9. <https://www.goldenpages.uz/company/?Id=86840>
10. <https://uzsmart.uz/library/pdf/51020>